

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 9 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 9

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 9



# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№9 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2022-9>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Artur Gambaryan**

yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)

**Yosuke Shamoto**

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Egamberdiyev Eminjon**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Skripnikov Nikolay Kuzmich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salayev Nodirbek Saparbayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farhod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirazov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


<b>1. Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна</b> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ: НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	5
<b>2. Умаров Бекзод Азаматович</b> ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА НОМАРКАЗЛАШТИРИШ ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ ЎРНИ.....	19
<b>3. Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи</b> ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ТИЗИМИДА КОНСТИТУЦИЯВИЙ СУД: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ.....	26
<b>4. Avezov Umidjon Toshpulatovich</b> JAMOAT BIRLASHMASI SIFATIDA KASABA UYUSHMALARINING HUQUQIY MAQOMI VA YURIDIK TABIATI.....	34
<b>5. Toshmuxammadov Asadbek Yusup o‘g‘li</b> O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY TADBIR O‘TKAZISH TARTIBINING HUQUQIY ASOSLARI (QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL).....	43
<b>6. Муракаева Зухра Ильгизаровна</b> СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ НОРМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АВТОРСКОГО ПРАВА.....	50
<b>7. Джалилов Фуркат Закирович</b> ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИНИНГ МУЛКИЙ МАНФААТДОРЛИГИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ.....	58
<b>8. Иброхимов Жамшид Абдуғофур ўғли</b> ЯЛПИ ҚИРҒИН ҚУРОЛЛАРИНИНГ НОҚОНУНИЙ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ЮРИДИК ТАҲЛИЛИ ВА ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	66
<b>9. Jumanazarova Marjona Botir qizi</b> OXIRGI ZARURAT NAZARDA TUTILGAN NORMALARNING RIVOJLANISH TARIXI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSIGA KIRITILISHINING ZARURATI.....	77
<b>10. Худайкулов Ферузбек Хуррамович</b> ЖИНОЯТ ОБЪЕКТИВ ТОМОНИ ФАКУЛЬТАТИВ БЕЛГИЛАРИ: УЛАРНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ВА ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	87
<b>11. Хидоятлов Бахтиёр Батирович</b> ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ПРОЦЕССУАЛ ШАКЛ: МОҲИЯТИ, ТАВСИФИ ВА АҲАМИЯТИ.....	100
<b>12. Полвонов Нажмиддин Аслидинович</b> ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МУСОДАРА ҚИЛИНИШИ МУМКИН БЎЛГАН МУЛК ОБЪЕКТЛАРИ.....	108



**Avezov Umidjon Toshpulatovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: [avezovumidjon@mail.ru](mailto:avezovumidjon@mail.ru)

## JAMOAT BIRLASHMASI SIFATIDA KASABA UYUSHMALARINING HUQUQIY MAQOMI VA YURIDIK TABIATI

**For citation:** Avezov Umidjon Toshpulatovich. LEGAL STATUS AND NATURE OF TRADE UNIONS AS PUBLIC ASSOCIATIONS. Journal of Law Research. 2022, 7 vol., issue 9, pp.34-42

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7243281>

### ANNOTATSIYA

Maqolada kasaba uyushmalarining tashkil etilishi va faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari tahlil qilingan hamda shu asosida kasaba uyushmalarining tuzilishi, ularning huquqiy maqomi va belgilari yoritib berilgan. Ishda xorijiy mamlakatlar tajribasida kasaba uyushmalarining faoliyatini amalga oshirishni tavsiflovchi bir nechta modellar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada kasaba uyushmalarining yuridik tabiati tahlilidan kelib chiqib uning o'ziga xos xususiyatlari sanab o'tilgan. Maqolaning xulosa qismida kasaba uyushmalari a'zolarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy kuchga ega ekanligini inobatga olib, kasaba uyushmalarining faoliyatini huquqiy tartibga solish tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan bir nechta takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar.** Kasaba uyushmasi, jamoat tashkiloti, xodim, ish beruvchi, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, tashkiliy-huquqiy asoslar.

**Авезов Умиджон Тошпулатович,**  
Самостоятельный соискатель Ташкентского  
государственного юридического университета  
E-mail: [avezovumidjon@mail.ru](mailto:avezovumidjon@mail.ru)

## ПРАВОВОЙ СТАТУС И ПРАВОВАЯ ПРИРОДА ПРОФСОЮЗОВ КАК ОБЩЕСТВЕННЫХ ОБЪЕДИНЕНИЙ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются основные цели и задачи организации и деятельности профсоюзов, и исходя из этого разъясняются структура профсоюзов, их правовой статус и признаки. В работе проанализировано несколько моделей, описывающих реализацию деятельности профсоюзов на основе опыта зарубежных стран. Также в статье перечислены его специфические черты на основе анализа правовой природы профсоюзов. В заключительной части статьи, принимая во внимание, что профсоюзы обладают важной социально-экономической силой в защите прав и

интересов членов, выдвигается ряд предложений по совершенствованию организационно-правовых основ правового регулирования деятельности профсоюзов.

**Ключевые слова.** Профессиональный союз, общественная организация, работник, работодатель, правовое государство, гражданское общество, организационно-правовые основы.

**Avezov Umidjon Toshpulatovich,**

Independent Researcher of Tashkent State University of Law

E-mail: [avezovumidjon@mail.ru](mailto:avezovumidjon@mail.ru)

## LEGAL STATUS AND NATURE OF TRADE UNIONS AS PUBLIC ASSOCIATIONS

### ANNOTATION

The article analyzes the main goals and objectives of the organization and activities of trade unions, and on this basis explains the structure of trade unions, their legal status and characteristics. The paper analyzes several models that describe the implementation of the activities of trade unions on the experience of foreign countries. The article also lists its specific features based on the analysis of the legal nature of trade unions. In the final part of the article, taking into account that trade unions have an important socio-economic power in protecting the rights and interests of members, a number of proposals are put forward to improve the organizational and legal foundations for the legal regulation of trade union activities.

**Keywords.** Trade union, public organization, employee, employer, rule of law, civil society, organizational and legal framework.

### Kirish

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadiga erishish jarayonida jamoat tashkilotlarining jamiyat hayotidagi oʻrni va rolini mustahkamlash muhimdir. Zero, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar koʻp qirrali jarayon boʻlib, ularning samarasi jamoatchilikning ishtirokiga bogʻliq, mazkur jarayonlarda muayyan ijtimoiy institutlar, xususan, kasaba uyushmalari muhim oʻrin tutadi. Kasaba uyushmalarining maqomi va huquqiy tabiati, huquq va funksiyalarini oʻrganish avvalambor kasaba uyushmalari tushunchasini tadqiq etishni taqozo qiladi.

### Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilm iy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qoʻllanilgan. Bundan tashqari, empirik materiallar, xususan, statistika maʼlumotlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

### Tadqiqot natijalari

Huquqshunos olim prof. O.T.Xusanovning fikricha, “Kasaba uyushmalari koʻngilli jamiyatdir, yaʼni uni tuzish, unga aʼzo boʻlish ixtiyoriydir. Bu tashkilot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlmagan (oʻquv muassasalari, sogʻliqni saqlash muassasalari va boshqalar) har qanday tashkilot, muassasalarda tuzilishi mumkin” [1, 244-245-b]. Huquqshunos olim Sh.Nazarovning fikricha, har qanday jamoat tashkiloti ijtimoiy va eng avvalo, huquqiy normalarga asoslanadigan tashkiliy birlik sifatida namoyon boʻladi. Jumladan, kasaba uyushmalari mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishdek umummilliy vazifani bajarishga muhim hissi bilan oʻziga xos oʻrin tutadi [2, 15-b].

Buyuk Britaniyalik olim G.Koulning fikricha, “kasaba uyushmasi – asosan aʼzolarning kundalik ishlari bilan bogʻliq ravishda iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish uchun olib boriladi” [3]. Mazkur taʼrifda kasaba uyushmalarining faqatgina bir funksiyasi: iqtisodiy funksiyasi jihatidan yondashilgan boʻlib, ijtimoiy, madaniy-maʼrifiy, himoya, vakillik funksiyalariga urgʻu berilmagan. Shuningdek, Uebbning fikriga koʻra, “kasaba uyushmasi – ish haqi oluvchilarning mehnat sharoitlarini saqlash va yaxshilash maqsadida tuzilgan doimiy birlashmadir. Kasaba

uyushmalari o‘zlarining manfaatlari mehnat munosabatlariga asoslangan xodimlarni va boshqa ijtimoiy guruhlarini birlashtirgan ixtiyoriy tashkilot shakli sifatida qabul qilinishi mumkin. Kasaba uyushmalarining asosiy maqsadi xodimlarning manfaatlarini ish beruvchilardan himoya qilishdir” [4].

I.Tursunovning fikricha, “kasaba uyushmalarining mehnat huquqiy munosabat subyekti sifatidagi maqomini belgilashda ular qandaydir davlat yoki jamoat organlaridan mustaqil, o‘z faoliyatini faqat xodimlar manfaatiga mos ravishda amalga oshiridigan organ ekanligi muhim ahamiyatga ega” [5, 28-29-b]. Mazkur fikrga qo‘shimcha ravishda T.Set: “Kasaba uyushmasi – ijtimoiy huquqlarini saqlash va yaxshilash maqsadida tuzilgan doimiy ishchilar birlashmasidir. Uning maqsadi nafaqat ish haqining pasayishiga qarshi, balki yuqori ish haqi uchun ham kurashishdir. Vaqtinchalik tashkilot yoki shunchaki ish tashlash qo‘mitasi kasaba uyushmasi hisoblanishi mumkin emas. Bu doimiy birlashma bo‘lishi kerak” [6] – deb qayd etadi. Buyuk Britaniyalik olim J.Korbining yozishicha, kasaba uyushmasi bu turli xil manfaatlarni ta‘minlash maqsadida fuqarolar tomonidan tuzilgan tashkilotdir. U yollanma o‘z a‘zolarining nomuayyan muddatga tuzilgan birlashmasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘z a‘zolarining mehnat sharoitlarini saqlash va yanada yaxshilashdir [7].

Mazkur olimning kasaba uyushmalarining tuzilishi va faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq fikrlari e‘tiborga molik deb hisoblaymiz. Zero, fuqarolik huquqi nazariyasiga ko‘ra ayrim turdagi yuridik shaxslar muayyan maqsadga erishgach tugatilishi nazarda tutiladi. Kasaba uyushmalari esa ulardan farq qilgan holda xodimlarning vakillik organlari sifatida doimiy asosda faoliyat yuritadi.

Huquqshunos olim Sh.Nazarovga ko‘ra, kasaba uyushmalarining aholini ijtimoiy himoya qilish vazifasini bajarish faoliyati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, O‘zbekiston kasaba uyushmalari ham aqliy, ham jismoniy mehnat xodimlarining eng ommaviy jamoat birlashmasi bo‘lib, u yuqoridan pastgacha o‘zining eng keng tarmoqli tashkiliy tuzilmasiga, qo‘p qirrali vazifalariga ega; ikkinchidan, kasaba uyushmalari boshqa jamoat tashkilotlaridan farqli ravishda amaldagi qonunga muvofiq bevosita mehnat jamoalarida tuziladi va faoliyat ko‘rsatadi [8, 24-b]. Shuni ta‘kidlash o‘rinliki, kasaba uyushmalari o‘zlarining a‘zolari bilan bevosita ishlaydi. Chunki mazkur tashkilot ish beruvchi joylashgan hududda faoliyat yuritadi. Zotan, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 18-moddasiga asosan, kasaba uyushmalariga o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur sharoitlarni ta‘minlash ish beruvchining majburiyati hisoblanadi.

O‘z navbatida, kasaba uyushmasi tushunchasini o‘rganishda va kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy asoslarini tahlil etishda, asosiy e‘tiborni, xalqaro huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va qonun osti hujjatlari, shuningdek, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hujjatlariga qaratish maqsadga muvofiq.

Xususan, 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning 20-moddasiga ko‘ra: har bir inson tinch yo‘l bilan yig‘ilishlar o‘tkazish va assotsiatsiyalarga birlashish huquqiga ega. Hech bir shaxsni biron bir assotsiatsiyaga majburan jalb qilish mumkin emas, degan qoida belgilangan bo‘lsa, 1966-yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 22-moddasida “Har bir inson boshqalar bilan uyushish erkinligi huquqiga, shu jumladan, kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega” ekanligi kabi qoidalar mustahkamlangan.

Shuningdek, kasaba uyushmalariga birlashish huquqi Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1948-yildagi 87-sonli Konvensiyasida belgilangan. 1998-yil 9-dekabrda “Alohida shaxslar, jamiyat guruhlari va organlarining umume‘tirof etilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish va himoya qilish yuzasidan huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi Deklaratsiya”ning 5-moddasiga ko‘ra, har bir shaxs yakka va boshqalar bilan hamkorlikda milliy va xalqaro miqyosida nohukumat tashkilotlari, assotsiatsiyalar yoki guruhlarini tashkil etish, ularga a‘zo bo‘lish va ularning faoliyatida ishtirok etish; nohukumat yoki hukumatlararo tashkilotlar bilan aloqada bo‘lish huquqlariga ega.

Milliy qonunchilikda kasaba uyushmalariga birlashish erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqi kafolatlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida fuqarolar kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va jamoat birlashmalariga

uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan. Shuningdek, kasaba uyushmalarining tashkiliy-huquqiy shakli to'g'risida Konstitutsiyamizning 56-moddasida to'xtalib o'tilib, O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi, deyilgan. Kasaba uyushmalarining asosiy maqsadi Konstitutsiyamizning 59-moddasida aniq berilgan bo'lib, bu xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etish va himoya qilishdir. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriyligining konstitutsiyaviy asosi ham aynan shu moddada aks ettirilgan.

B.Narimonovning ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat birlashmalariga a'zolik masalalarida ixtiyoriylik prinsipiga asoslanish konstitutsiyaviy darajada belgilanmaganligi ko'rsatilgan holda, ixtiyoriylik prinsipi faqat kasaba uyushmasiga a'zolik masalasida bayon qilingan [9, 12-b].

O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunida kasaba uyushmasi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Fuqarolarning o'z faoliyati yoki o'qishi turi bo'yicha umumiy kasbiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida tuziladigan, o'z ustavi asosida faoliyat ko'rsatadigan ixtiyoriy jamoat birlashmasi" [10].

J.A.Djabbarov esa: "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga birlashgan kasaba uyushmalari ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyati turi bo'yicha umumiy manfaatlar bilan birlashgan xodimlar, qisman ish bilan band bo'lganlar yoki vaqtincha ishsizlar, talabalar va o'quvchi yoshlar, ishlaymaydigan pensionerlar, aholi boshqa qatlamlarini o'zini-o'zi boshqaradigan, ko'ngilli jamoat nodavlat notijorat tashkilotidir" [11, 11-b], – deydi.

Yuqoridagilarga asosan qayd etish lozimki, kasaba uyushmasi a'zolarining ixtiyoriy tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida belgilanganidek: "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi". Mazkur qoidada kasaba uyushmalarining jamoat birlashmasi sifatidagi huquqiy maqomi nazarda tutilgan.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy yondashuvlardan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: Kasaba uyushmasi – ishchilarning mehnat munosabatlaridagi huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash hamda mehnat sharoitlarini saqlash va yaxshilash maqsadi bilan ko'ngilli ravishda birlashgan xodimlardan iborat jamoat birlashmasidir.

Kasaba uyushmalarining yuridik tabiatini tushunish uchun mazkur tashkilotlarning tashkil etilishi va faoliyatining asosiy maqsad va vazifalarini yoritish lozim.

B.Narimonovning fikricha, "nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy tabiati uning tushunchasi va tashkil qilinish prinsipidan kelib chiqib, shuningdek, NNTning ta'sischi davlat sanalmaydi, balki mustaqil subyektlar sanalib, ushbu subyektlar davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lmasligi kerak" [12, 12-b]. Rossiyalik huquqshunos olim M.Kuznesov kasaba uyushmalarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tadi: 1) fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqiy ixtiyoriy bo'lib, o'z tashabbusiga asoslanadi; 2) kasaba uyushmalari jamoat tashkiloti hisoblanganligi sababli ularning faoliyati nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilik normalari asosida tartibga solinadi; 3) kasaba uyushmalarining boshlang'ich tashkilotlari a'zolari faqatgina fuqarolar bo'lishi mumkin; 4) kasaba uyushmalari fuqarolarning mehnat faoliyati bo'yicha birlashtiradi [13, 86-b].

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda kasaba uyushmalarining maqsadlari ko'p jihatdan tijorat firmalarining maqsadlariga o'xshash deb hisoblovchi tadqiqotchilar soni tobora ortib bormoqda. Jumladan, V.Rakoti kasaba uyushmasini xodimlar, mulkdor va ish beruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi tijorat tashkiloti sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi. G.J.Kruden va A.U.Sherman kasaba uyushma tuzilmalarini muvaffaqiyatli bo'lishi uchun yaxshi tashkilot va samarali boshqaruvga muhtoj bo'lgan kompaniya sifatida qarash mumkin deb hisoblaydi [14, 64-b]. R.Redlix kasaba uyushmasi

ishchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun yaratilganligini qayd etib, hozirda kasaba uyushmalarini professional menejerlar boshqarishi va har qanday menejerning maqsadi faoliyatni monopoliyalashtirishdir [15, 25-b], – deydi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Xoririjiy mamlakatlar tajribasida kasaba uyushmalarining faoliyatini amalga oshirishni tavsiflovchi bir nechta modellar mavjud [16, 120-b]. Kasaba uyushmalari ichki tuzilishi, tuzilgan shartnomalar doirasi, boshqaruv jarayonlaridagi xodimlarning ishtiroki, hukumat va siyosiy partiyalar bilan munosabatlari yoki ijtimoiy muloqotga qo‘shgan hissalar bilan farq qilishi mumkin. Xorijlik olim B.Ebbinghaus kasaba uyushmalari faoliyatining quyidagi Yevropa modellarini tasniflaydi: ishchilar kasaba uyushmasi, solidaristik ittifoqchilik, qutblangan plyuralizm, seksiyaviy plyuralizm va konsolidatsiyalangan ittifoqchilik [17].

Ishchilar kasaba uyushmasi ingliz tizimi uchun hosdir. Mazkur modeldagi kasaba uyushmasi (sanoat, kasbiy yoki umumiy) yetarli darajada mustaqil. Solidaristik ittifoqchilik modeli Skandinaviya davlatlarida paydo bo‘lgan. Solidaristik kasaba uyushmalari ijtimoiy davlat modeli doirasidagi faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Siyosiy opportunizm va mojarolar kasaba uyushma vakillarini siyosiy tuzilmalardan chetlashtirishga olib keladi (masalan, Ispaniya, Portugaliya, Italiya). Seksion plyuralizm, o‘z navbatida, kasaba uyushmalari turli guruhlarga (diniy va dunyoviy) bo‘linishini nazarda tutadi. Konsolidatsiyalangan ittifoqchilik maxsus institutlar (Germaniya, Avstriya) tufayli erishilishi mumkin bo‘lgan uyg‘unlik va ijtimoiy hamkorlikka asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta‘lim olayotgan, o‘n besh yoshga to‘lgan shaxslar hech qanday tafovutsiz o‘z tanloviga ko‘ra va oldindan ruxsat olmay turib, ixtiyoriy ravishda kasaba uyushmalarini tuzish huquqiga, shuningdek, kasaba uyushmalariga ularning ustavlariga rioya etish sharti bilan a‘zo bo‘lish huquqiga egaligi belgilangan [18].

Shuningdek, kasaba uyushmalari faoliyatining uch mezonga ko‘ra guruhlarga bo‘lish mumkin. Asosiy maqsadi mehnat va kapital o‘rtasidagi ziddiyatga aralashish bo‘lgan kasaba uyushmalari mavjud. Ikkinchidan, ayrim kasaba uyushmalari mehnat sharoitlarini yaxshilashga e‘tibor berishadi (sof kasaba uyushmasi). Uchinchi, eng muhimi, kasaba uyushmalari, masalan, mehnat siyosati yoki globallashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni yanada kengroq hal qilishga urinishlari mumkin.

Kasaba uyushmalarining xodimlar, ish beruvchilar, turli darajadagi institutsional tuzilmalar, davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi kasaba uyushmalari faoliyatining eng samarali shakllariga erishishga ko‘maklashadigan modelini shakllantirish imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda quyidagi modellar mavjud:

“kelishuv modeli” – kasaba uyushmalari va davlat idoralari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning faol shakllari, jamoaviy muzokaralar jarayonlarini markazlashtirishning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. (ushbu model Shimoliy Yevropa davlatlari Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, Gollandiya mamlakatlarga xosdir);

“plyuralistik model” – jiddiy qonuniy o‘zaro munosabatlarni nazarda tutmaydi, u asosan mintaqaviy va federal darajalarda emas, balki alohida korxonalar asosida to‘plangan jamoaviy bitim jarayonlari bilan tartibga solinadi (ushbu model Kanada AQSh va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda qabul qilingan).

“paternalistik model” – Yaponiyada shakllangan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ish beruvchining mavqei ustunligi va tashqaridan “bo‘ysunish” pozitsiyasini nazarda tutadigan “umrbod bandlik” tizimiga asoslangan bu modelda ish beruvchining xarajatlarini “qoplash” orqali xodimga umrbod bandlik kafolatlari taqdim etilishi kerak.

“ijtimoiy sheriklik modeli” – uch tomonlama hamkorlikka asoslangan, turli darajalarda olib boriladigan va mehnat kodeksi qoidalar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan “ijtimoiy sheriklik modeli” Sovet ittifoqi mamlakatlarida keng tarqalgan edi [19].

Ko‘p sonli kasaba uyushma modellari va ularning xilma-xilligi, shuningdek, turli siyosiy vaziyatlarga qaramay, kasaba uyushmalarining mavjudligi hali ham ijtimoiy tartibning zaruriy

elementi sifatida qabul qilinmoqda [20]. Ular muhim ijtimoiy sherik va ishchilarning manfaatlarini himoya qiladigan bir kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda kasaba uyushmalari “Ijtimoiy sheriklik modeli”ga muvofiq kelib, kasaba uyushmalari faoliyati konstitutsiya, maxsus qonun hamda Mehnat kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi miqyosida kasaba uyushmalari faoliyati o‘z qatnashchilari huquq hamda manfaatlarini hamkorlikda amalga oshirish va himoya qilish maqsadida tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Hozirgi vaqtda kasaba uyushmalarning turli shakllari mavjud bo‘lgan davlatlarni nazariy jihatdan uchta shartli guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga kasaba uyushma tashkilotlarining aksariyat qismini birlashtirgan bitta yirik kasaba uyushma markazi mavjud bo‘lgan davlatlar kiradi. Shu bilan birga, ular bilan bir qatorda tarmoq yoki mahalliy xarakterdagi kichik mustaqil kasaba uyushmalari, kasbiy yoki siyosiy prinsip asosida tuzilgan, ammo asosiy kasaba uyushma markazi bilan raqobatlasha olmaydigan milliy kasaba uyushmalari mavjud. Ushbu guruhga AQShda elektrchilarning birlashgan kasaba uyushmasi kabi kasaba uyushmalari mavjud. Germaniyada Germaniya kasaba uyushmalari assotsiatsiyasi bilan bir qatorda davlat xizmatchilari kasaba uyushmasi va xristian kasaba uyushmalari assotsiatsiyasi mavjud.

Ikkinchi guruhni ishchilar, texniklar va xizmatchilarni birlashtirgan alohida kasaba uyushma markazlari mavjud bo‘lgan Skandinaviya mamlakatlari tashkil etadi.

Uchinchi guruhga siyosiy prinsipga ko‘ra birlashgan kasaba uyushmalari joylashgan davlatlar kiradi. Bular Fransiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Shveysariya va Beniluks mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya, Luksemburg).

O‘zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining birlashtirgan bitta yirik kasaba uyushma markazi mavjud bo‘lgan guruhga kirib, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tarmoq kasaba uyushmalari, viloyat, kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalarini, kasaba uyushmalari a‘zolarini o‘zida birlashtiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 6,1 milliondan ortiq kasaba uyushmalari a‘zolarini birlashtiradigan 14 ta tarmoq kasaba uyushmalari, ya‘ni 12 ta viloyat, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlaridan iborat [21]. Hozirgi vaqtda ushbu institutning ijtimoiy jarayonlarga ta‘siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq, ya‘ni inson huquqlari va manfaatlari doirasiga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Ta‘kidlash joizki, jamoat tashkilotlari orasida kasaba uyushmalari mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishdek umummilliy vazifani bajarishga muhim hissasini qo‘shishi bilan o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning mazkur maqomdagi faoliyati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, O‘zbekiston kasaba uyushmalari ham aqliy, ham jismoniy mehnat xodimlarining eng ommaviy jamoat birlashmasi bo‘lib, u yuqoridan pastgacha o‘zining keng tarmoqli tashkiliy tuzilmasiga, ko‘pqirrali vazifalariga ega;

Ikkinchidan, kasaba uyushmalari boshqa jamoat tashkilotlaridan farqli ravishda amaldagi qonunga muvofiq bevosita mehnat jamoalarida tuziladi va faoliyat ko‘rsatadi, u ijtimoiy infratuzilmaning puxta ishlab chiqilgan mexanizmi va keng yoyilgan shaxobchasiga ega, eng muhimi har bir kasaba uyushma a‘zosi bilan bevosita ish joyining o‘zida munosabatda bo‘ladi. Va nihoyat, biz uchun eng muhimi, respublika kasaba uyushmalari o‘tmishdagi safsatabozlikdan voz kechib, o‘z faoliyatida ijtimoiy sherikchilik tamoyillariga o‘tishi kasaba uyushmalarining davlat bilan o‘zaro aloqalarini yanada rivojlantirish va kengaytirishda muhim turtki bo‘ldi [22].

Kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi qonunchilikda mustahkamlangan ularning huquqlari hamda funksiyalari bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunda kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining huquqlariga rioya etilishi kafolatlari, kasaba uyushmalari tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibi hamda kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining, bo‘linmalarining va boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlarining huquqlari mustahkamlangan. Kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi quyidagi yo‘nalishlarda o‘z aksini topgan: 1) kasaba uyushmalari faoliyatining bosh tamoyillari sifatida mazkur sohaga oid asosiy prinsiplari mavjud; 2) kasaba

uyushmalarining huquqlariga rioya etilishi kafolatlari mustahkamlangan; 3) xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalarini hal qilishda ishtirok etishga bo‘lgan huquq; 4) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etishga bo‘lgan huquqning mavjudligi; 5) ish beruvchilar (davlat organlari va mansabdor shaxslar) jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; 6) mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish.

Bizning fikrimizcha, kasaba uyushmalarining yuridik tabiati tahlilidan kelib chiqib quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini qayd etish mumkin:

kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi (boshqa jamoat birlashmalaridan farqli ravishda) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanganligi;

kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari turdosh nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunchilik normalari bilan ham tartibga solinadi;

fuqarolarning o‘z faoliyati yoki o‘qishi turi bo‘yicha umumiy kasbiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lgan, ularning huquqlarini (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘rifiy, siyosiy) ifodalash maqsadida itiyoriy tuzilishi;

boshqa jamoat tashkilotlaridan farqli ravishda amaldagi qonunga muvofiq bevosita mehnat jamoalarida tuzilishi va faoliyat ko‘rsatishi;

fuqarolarning mehnat huquqlarini kafolatlash yuzasidan ijtimoiy hamda siyosiy manfaatlarini ifodalashiga ko‘ra siyosiy manfaatlarini ifodalovchi fuqarolik jamiyati institutidir;

kasaba uyushmasi boshqa turdagi jamoat tashkilotlaridan farqli ravishda faqatgina jismoniy shaxslar tomonidan tuzilishi mumkin va ular boshqacha yo‘l bilan tuzilmaydi.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, kasaba uyushmalari xodimlarning mehnat munosabatlaridagi huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta‘minlash hamda mehnat sharoitlarini saqlash va yaxshilash maqsadi itiyoriy ravishda birlashgan xodimlarning tashkilotidir. Kasaba uyushmalari tashkil etilishi va faoliyati jihatidan nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi, shu bilan birga ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ularni boshqa jamoat tashkilotlardan farqlarini ko‘rsatadi.

Kasaba uyushmalariga birlashish huquqi, ularning faoliyati tartibi va kafolatlari xalqaro standartlar, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik hujjatlari orqali tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati, xususan, kasaba uyushmalarining faoliyati konstitutsiya-huquqiy asoslarida kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining huquqlariga rioya etilishi kafolatlari, kasaba uyushmalari tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibi hamda kasaba uyushmalarining huquqlari kafolatlari mustahkamlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik yangilanishlar jarayonida fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri hisoblanadigan kasaba uyushmalarining roli va nufuzi tobora o‘sib bormoqda. Bu o‘z navbatida, ularning faoliyat samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslarni davr talabi asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Istiqbolda kasaba uyushmalari a‘zolarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy kuchga ega ekanligini inobatga olib, quyidagi yo‘nalishlarda kasaba uyushmalarining faoliyatini huquqiy tartibga solish tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish taklif etiladi:

birinchidan, kasaba uyushmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada soddalashtirish (kasaba uyushmalari a‘zolariga qo‘yilgan talablarni xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish) va kasaba uyushmalarining ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish bo‘yicha huquqlarini kengaytirish;

ikkinchidan, ish beruvchilar va kasaba uyushmalari o‘rtasidagi konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish zamonaviy kasaba uyushmalari faoliyatining ilg‘or mexanizmlarini qonunchilikka joriy etish maqsadida “zamonaviy onlayn platforma yaratish” maqsadga muvofiq.

uchinchidan, kasaba uyushmalari faoliyatining muhim yo‘nalishi sifatida amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish.

**Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent.: “Adolat”. 2010, – B. 244-245 (Khusanov O.T. Constitutional right. - Tashkent.: "Adolat". 2010, - P. 244-245).
2. Nazarov Sh. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining o‘rni. Yurid. fan. nomz. diss... – Toshkent: TDYuI, 2009. – B. 15 (Nazarov Sh. The role of public organizations in the formation of civil society in Uzbekistan. Diss... Law science - Tashkent: TSIL, 2009. - P. 15).
3. Cole G. History of British trade Unionism, available at [www.amazon.com/s](http://www.amazon.com/s) (Accessed on 15/8/2012)
4. Jacek Lewkowicz and Anna Lewczuk. Central European Economic Journal | Volume 2: Issue 49. An Institutional Approach to Trade Union Density. The Case of Legal Origins and Political Ideology Jacek Lewkowicz and Anna Lewczuk. 2018. <https://content.sciendo.com/view/journals/ceej/2/49/article-p35.xml?language=en>
5. Tursunov I. Mehnat huquqi. – Toshkent: 2006, – B. 28-29 (Tursunov I. Labor law. - Tashkent: 2006, - P. 28-29).
6. T.Seth Trade Unions: Meaning, Functions and Consequences of Trade Union Action. <https://www.economicdiscussion.net/trade-unions/trade-unions-meaning-functions-and-consequences-of-trade-union-action/1765>.
7. Jo Corby-Hall. Legal status of the British trade union // Study paper. Springer Link. 2016.
8. Nazarov Sh. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining o‘rni. Yurid. fan. nomz. diss... – Toshkent: TDYuI, 2009. –24 b (Nazarov Sh. The role of public organizations in the formation of civil society in Uzbekistan. Law. science. name diss... - Tashkent: TSUL, 2009. - P. 24).
9. B.Narimonov O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori ...avtoref. – Toshkent: TDYU, 2020. – B 12 (B.Narimonov Improving the organizational and legal foundations of non-governmental non-commercial organizations in Uzbekistan. Doctor of Philosophy in Legal Sciences ... author. - Tashkent: TDYU, 2020.- P. 12).
10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019 y., 03/19/588/4115-son (National database of legal documents, 07.12.2019, No. 03/19/588/4115).
11. Djabbarov J.A. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda kasaba uyushmalarining o‘rni. Risola. – Toshkent: TDYuI, 2013, – B.11 (Djabbarov J.A. The role of trade unions in the formation of civil society. Treatise. -Tashkent: TSUL, 2013, - P.11).
12. B.Narimonov O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori ...avtoref. – Toshkent: TDYU, 2020. – B. 12 (B. Narimonov Improving the organizational and legal foundations of non-governmental non-commercial organizations in Uzbekistan. Doctor of Philosophy in Legal Sciences ... author. - Tashkent: TDYU, 2020. - P. 12).
13. M.Kuznesov Pravovaya priroda deyatelnosti profsoyuzov // Grajdantin i pravo. – M.; Novaya pravovaya kultura, 2015. №8 – S. 86 13. (Kuznesov M. Legal nature of the activities of trade unions // Citizen and law. – M.; New Legal Culture, 2015. No. 8 - P. 86).
14. G.Dj. Kruden, A.U. Sherman. Zarubejnyy opyt upravleniya personalom. Вып. 4. Otnosheniya mejdu rabotnikami (profsoyuzami) i administratsiey: Per. s angl. M.: IPK gsslujby, 2001. – S. 64 (G.J. Kruden, A.Yu. Sherman. Foreign experience in personnel management. Issue. 4. Relations between workers (trade unions) and administration: TRANS. from English. M.: IPK GSSsluiby, 2001. - P. 64).
15. Lopuxa A.D. Trudovye otnosheniya: istoriya, teoriya i sovremennaya rossiyskaya praktika. Novosibirsk, 2002. – S. 320 (Lopukha A.D. Labor relations: history, theory and modern Russian practice. Novosibirsk, 2002. - P. 320).
16. Sunarchina M.M. Profsoyuzы, kak sotsialnyy institut transformiruyushchegosya rossiyskogo obshchestva: Dis. ... kand. sotsiol. nauk. Ufa, 2004. – S. 120 (Sunarchina M.M. Trade unions as

- a social institution of the transforming Russian society: Dis. ...cand. sociological the science. Ufa, 2004. - P. 120).
17. Lewkowicz, Jacek. 2015. "Economic Analysis of Labor Law: The Evaluation of Trade Unions' Foundations, Models and Valid Regulation." In: Polish Yearbook of Law & Economics, eds. Jarosław Bełdowski, Katarzyna Metelska-Szaniawska, and Louis Visscher. Warsaw: C. H. Beck.
  18. Ebbinghaus, Bernhard. 2002. "Trade Unions' Changing Role: Membership Erosion, Organizational Reform, and Social Partnership in Europe." *Industrial Relations Journal* 33(5): – S.465–483.
  19. Kuchigina S.K. Profsoyuz kak institutsionalnaya struktura v usloviyax rynochnoy ekonomiki. Mir Nauki. Nauchnyy internet jurnal. Выпуск 3 – 2014 (Kuchigina S.K. The trade union as an institutional structure in a market economy. The world of science. Scientific online journal. Issue 3 - 2014.)
  20. Wratny, Jerzy, and Marek Bednarski, eds. 2010. *Związki zawodowe a niezwiązkowe przedstawicielstwa pracownicze w gospodarce posttransformacyjnej (Trade Unions and Non-Unionized Employees' Organizations in the Post-Transformational Economy)*. Warsaw: Instytut Pracy i Spraw Socjalnych.
  21. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi rasmiy veb-sayti – <https://kasaba.uz/uzbekiston-kasaba-uyushmalari-federatsiyasining-tahriri/>
  22. Yoqubov E. Ijtimoiy sherikchilik fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida O‘zbekiston kasaba uyushmalari faoliyatining o‘zagidir. // "Ishonch" gazetasi. 2000 yil 23 may (Yaqubov E. Social partnership is the core of the activity of trade unions of Uzbekistan in the conditions of formation of civil society. // "Ishonch" newspaper. May 23, 2000.)

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 9 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 9

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 9

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000